

SUD-TIBBIY EKSPERTIZASI (MORFOLOGIK TEKSHIRUVDA)  
VA TIBBIY-KRIMINALISTIKANING AHAMIYATI

*Normamatova Gulmira Baxodir qizi,*

*Qayumov G'ulomjon Muzaffarovich*

*Umirzakova Shahlo Muminjanovna,*

*Arzikulov Shokirjon Komiljonovich*

*Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi*

*Toshkent viloyat filiali Bekobod tumanlararo*

*sud-tibbiy ekspertiza bo'linmasi laborantlari.*

*@Bektumste*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda sud-tibbiy ekspertiza xizmatining vujudga kelishi va rivojlanishi Sud-tibbiy ekspertiza sog'liqni saqlash tizimining ixtisoslashtirilgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning faoliyati boshqa sohalardan o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Jumladan, sud-tibbiy ekspertiza xizmati sog'liqni saqlash muassasalari qatoriga kirgan holda, jinoiy va fuqarolik ishlarini surishtirish, tergov qilish va sudda ko'rish jarayonida vujudga keladigan tibbiy-biologik masalalarni hal etish ya'ni sud-tibbiy ekspertizalarni o'tkazish uning asosiy vazifasidir. Ayni paytda sud-tibbiy ekspertiza muassasalari ekspertiza materiallari bo'yicha aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash, travmatizmning turli ko'rinishlari, zaharlanish, to'satdan o'lim va boshqa baxtsiz hodisalarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ham o'tkazishlari lozim. Sud-tibbiy ekspertiza xizmati strukturasi, tuzilmalar faoliyatini tashkil etish, protsessual masalalar, soha mutaxassislarini tayyorlash, shtat me'yorlari, turli xil ekspertiza va tekshiruvlarni o'tkazishda amal qilinishi lozim bo'lgan talablar mazkur xizmatning farqli xususiyatlarini yana bir bor ta'kidlaydi. Sud-tibbiyoti; tibbiyotning bir bo'limi tibbiy kriminalistikaning sud-tibbiyotidagi axamiyati juda kattadir. Morfologik tekshiruvlarda jasadlarni tekshiruvlarida, voqealarni ko'zdan kechirishda, jinoyatlarni ochiqlashda tibbiy kriminalistikaning o'rni axamiyatga egadir. Sud-tibbiy ekspertizaning morologik tekshiruvda jasadlarda aniqlangan tan jaroxatlari, ularning yetkazilish mehanizmi, miqdori hamda jinoyat sodir etilishiga aloqador bo'lgan barcha ashayoviy dalillarni ko'zdan kechirib, bir qancha tekshiruvlar bilan aniqlik kiritilishidir.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot, sud-tibbiy ekspertiza, fuqaro, tibbiy kriminalistika, moroflogik, jasad, jinoyat, voqealarni, ashayoviy dalillar, mehanizm, miqdor, tekshiruvlar.

**Tibbiy kriminalistika-bu:** (lotincha, criminalis-jinoyatga doir) sud-dalillarini yig'ish, qayd qilish, tadqiq etish va ularidan foydalanishning maxsus usul va vositalari

tizimini ishlab chiquvchi fan xisoblanadi. Mazkur usullar va vositalar jinoyatlarni fosh qilish, tekshirish va olidini olish uchun qo'llanadi.

**Professionalizm:** Ta'kidlash joizki, o'zaro farqlangan (tabaqalashtirilgan) bilimlarning funksionalligi davlat sud-ekspertiza muassasalari (bo'limlar, laboratoriylar va ma'lumotlar bazalari) tarkibini shakllantirishda, tergov va ekspert mutaxassisliklari hamda kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini shakllantirishda samarali qo'llaniladi. Maxsus bilimlarni o'zaro aniq farqlamasdan, kriminalistik faoliyatni samarali normativ-huquqiy tartibga solish ham mumkin emas.

Ashyoviy dalillarning tibbiy-kriminalistik ekspertiza va tekshiruvlari sud-tibbiy ekspertiza muassasasining tegishli ravishda jihozlangan maxsus tuzilmasi tibbiy kriminalistika bo'limida diagnostik, identifikatsion (shaxsning aynanligini aniqlash) va situatsion (vaziyatli) masalalarni hal etish maqsadida o'tkaziladi.

Identifikatsion tekshiruvlar shaxsi noma'lum murda yoki uning qismlari, qoldiqlarining muayyan shaxsga tegishli ekanligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Shaxsi noma'lum murda, uning qismlari yoki qoldiklari, shu jumladan alohida suyaklar va ularning fragmentlari, kul holidagi suyak qoldiqlari, shuningdek hodisa yoki topilgan joyni ko'zdan kechirish, sud-tibbiy ekspert tekshiruvi jarayonida olingan ularning xususiyatlarini ifodalovchi tavsif, antropometrik, fotografik, rentgenografik va boshqa modellar ko'rinishida hujjatlashtirilgan materiallar identifikatsion tekshiruvlar ob'ekti hisoblanadi. Tekshiruvning dastlabki bosqichida qayd etilgan ob'ektlar bo'yicha hamda yo'qolgan odamning shaxsini ifodalovchi belgilar alohida o'rganilib, keyingan bosqichda olingan ma'lumotlar taqqoslanadi. So'nggi bosqichda tekshiruvlari natijalari bo'yicha aynanlikning mavjudligi yoki yo'qligi haqida xulosa qilinadi.

Murdaning shikastlangan to'qimalari hamda hosil bo'lish mexanizmi bo'yicha shikastlanish bilan bog'liq bo'lgan kiyim-boshda mavjud bo'lgan mikrozarralar, mikroizlar, shuningdek avval o'tkazilgan mikrologik tekshiruvlar, hodisa yoki mudra topilgan joyni ko'zdan kechirish, murdaning sud-tibbiy tekshiruviga oid hujjatlardagi ma'lumotlar mikrologik tekshiruvlar ob'ekti bo'lishi mumkin. Mazkur tekshiruvlarda murdaning tanasi, kiyim-boshida yot mikroob'ektlarning mavjudligi hamda shikastlovchi quollardagi moddalar va mikroob'ektlarning jabrlanuvchining tanasi va kiyim-boshiga o'tishi yoki uning aksi aniqlanadi.

Situatsion tekshiruvlarda taxmin etilayotgan shart-sharoitda ma'lum bir harakatlarni sodir etish imkoniyati borligi yoki yo'qligi masalasi o'rganiladi. Xususan, voqeani qayta tiklash bo'yicha ekspert tekshiruvlarini o'tkazishda tan jarohatlarining yetkazilish mexanizmi va dinamikasi haqidagi tergov va ekspert tekshiruvlari yo'li bilan olingan ob'ektiv ma'lumotlarning hodisa ishtirokchilari ko'rsatmalarini bilan mos kelishi hamda tekshirilayotgan jarohat yoki izlarning muayyan tafsilot va sharoitlarda hosil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi.

**Xulosa:** Sud-tibbiy ekspertiza tekshiruvida tibbiy kriminalistikaning axamiyati morfologik tekshiruvda aniqlangan, uning o‘limi yuz berishiga aloqodor bo‘lgan jaroxatlar, ularni izlari, jaroxatlar xamda ashyoviy dalillarni sud-tibbiy kriminalistika laborotoriyasiga taqdim etish orqali aniqlik krita olamiz.

**Birinchidan,** Tibbiy kriminalistikaning sud-tibbiy ekspertizaga eng katta yordami laborotoriyaga yuborilgan organ yoki ashyoviy dalillarda jinoyat alomatlari bor yo‘qligi, mavjud bo‘lganda ularning soni, yetkazilish ketma-ketligi, yetkazilish mexanizmi xaqida ma’lumot berilganda, sud-tibbiy ekspertga xulosa berishligi muhim ro‘l o‘ynaydi.

**Ikkinchidan,** Sud-tibbiy morfologik tekshiruv jarayonida jasaddan olingan organ yoki ashyoviy dalillarda ishga daxldor biror ma’lumotlar aniqlanganda yozma va fotojadvallarga ilova qilib berilishi;

**Uchinchidan,** Bunday yangi ekspertiza turlarining amaliyotda keng qo‘llanilayotganligi jinoyatlarni ochish, dalillar to‘plash, odil sudlovni amalga oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sud-tibbiyoti. Z.A.G‘iyosov. “Asian house” 2021 y.
2. O‘zbekiston Respublikasida sud-tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi Me’yoriy hujjatlar. Toshkent 2012y.3.